

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL



Iyul №7, 2026

Агробизнес, наука и
технология

AGROBIZNES FAN VA TEXNOLOGIYALAR

Agribusiness, science and
technology

№ 083688



ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform &
workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR

Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.

Bosh muharrir o'rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Farmonov To'lg'in Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna – i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay'ati:**08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:**

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;

Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;

Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Javlijev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);

Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);

Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);

Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;

Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;

Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);

Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;

Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS

Toshkent davlat agrar
universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray
tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

Jurnalning ilmiyligi:

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 30.11.2024-yildagi
№364/5-sonli qarori bilan
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari
bo'yicha, 08.05.2025-yildagi
№370/5-sonli qarori bilan
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari
bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy
ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 673 sahifa.

E'lon qilishga 2026-yil 30-iyulda
ruxsat etildi.



JAMSHID SHODMONOV

The growth of online shopping in Uzbekistan and its impact on consumer behavior.....412

ERKABOYEVA JASMINA SAFARALI QIZI

Xususiyl tadbirkorlik: kichik biznesning rivojlanishi va strategik yutuqlari.....426

TASHNAZAROVA SITORA FAXRIDDINOVNA

Sanoat tarmoqlarini rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishning zaruriyati va o'ziga xos xususiyatlari.....432

ERGASHEVA SHAXZODA BAHROM QIZI

Sun'iy intellekt yordamida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish.....442

BAHROM KAMILOVICH AVEZOV

Orol dengizi mintaqasida qashshoqlikni kamaytirish: ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik va institutsional yondashuvlarning ko'p o'lchovli tahlili.....448

MAHMUDOV QUDRATILLO XURSANDBEK O'G'LI

O'zbekiston tijorat banklarida kredit risklarini baholash va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish: xalqaro standartlar va milliy amaliyot.....458

QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

OCHILDIEV UKTAM OLLANAZAROVICH

Surxondaryo viloyatida anor yetishtirishning agrotehnologik xususiyatlari.....466

XUDAYQULOV JONIBEK BOZAROVICH, QASHQABOYEVA CHULPANOV TULKUNOVNA, ALISHEROV XASAN ALISHER O'G'LI

Dunyo mamlakatlari va O'zbekistonda sholini muttasil yetishtirishda mineral va organik o'g'itlar qo'llashning hosildorlikga ta'siri.....472

ЧОРИЕВА ЗАРХОЛ ҚОДИРОВА

Суғориш усуллари ва тартибини анор навлари фенологик фазаларининг ўтиш муддати ва давомийлигига таъсири.....478

MIRZASOLIYEV MIRZAOSIMJON MIRZASOYPOVICH

Oraliq ekin sharoitida turli ekish sxemalarining piyoz hosildorligiga ta'siri.....484

МАВЛОНОВА НАСИБА УМАРОВА

Оптималь суғориш ва сув танқислиги шароитида ғўзанинг навлараро мураккаб дурагайларида олинган оила, тизма ва навида 1000 дона чигит вази белгисининг шаклланиши.....488

MUXTOROV O'ZBEKXON BURHONOVICH

Davlat mulkchiligi sharoitida qishloq xo'jaligi yerlarini me'yoriy baholashning gibrid modeli: obyektiv va bozor signallarini integratsiyalash asosida.....493

YO'LDOSHEV NURBEK ERGASHOVICH, SAYFULLAEVA MAXBUBA ILXOMOVNA

«Alpek» mahalliy antigelmint substansiyasining quyonlarda o'tkir toksikligini klinik, gematologik va biokimyoviy baholash.....501

OCHILOVA MUXAYYO SHAKAR QIZI

Baholash natijalari asosida yer tuzish loyihalarini optimallashtirish.....509





YULDASHOV NURBEK ERGASHOVICH, ZAHRIDDINOVA GAVHAR HASAN

QIZI

Chorvachilik mahsulotlari xavfsizligini ta'minlashda go'sht va go'sht mahsulotlarini veterinariya-sanitariya jihatidan baholash usullari va ilmiy-amaliy ahamiyati.....516

MIRZASOLIYEV MIRZAOSIMJON MIRZASOYPOVICH, SHOKIROV ALISHER

JO'RABOYEVICH

Piyozni oraliq ekin sifatida ko'chatidan ekib yetishtirishda piyoz nav namunalarining rivojlanish bosqichlarini davomiyligi.....521

ТРЯНОВСКАЯ РАНО АБДУСАТТАРОВНА, ИСАМУХАМЕДОВ САЛИХ

ШУКУРОВИЧ

Сезонная динамика клинических показателей Африканских страусов разных возрастных групп в условиях Узбекистана.....526

TURDALIEV JAMOLBEK MO'MINALIEVICH, SANAQULOV SUXROB

FARMONQULOVICH

Teskari Osmos texnologiyasi yordamida minerallashgan kollektor-drenaj suvlarini tozalash va uning tuproq ekologik-meliorativ holatiga ta'siri.....531

BO'RIYEV ABROR NORTAJIYEVICH, NIZOMOV RUSTAM AXROLOVICH

No'sh piyozdan bosh piyoz yetishtirishda ekish sxemalarining iqtisodiy samaradorlikka ta'siri.....539

KAMALOVA NARGIZA MAXAMMADOVNA

Pomidorni kokteyl tipidagi duragay namunalarining hosildorligi.....545

OCHILOVA MUXAYYO SHAKAR QIZI

Yer tuzishni majmuaviy baholashning integrallashgan ko'rsatkichini shakllantirish va hisoblash algoritmi.....522

BOLTAYEV SAYDULLO MAQSUDOVICH, MELIYEVA FAROG'AT SHAVKAT

QIZI

Kuzgi bug'doyning (*Triticum Aestivum* L.) biometrik ko'rsatkichlari va hosil elementlarining shakllanishiga mineral o'g'itlarga qo'shimcha tabiiy adsorbentlarni qo'llashning ta'siri.....567

UZOQOV ADIXAMJON ABRORJON O'G'LI

Qator orasi va ko'chat qalinligining sholi hosili va don sifatiga ta'siri.....571

BOBOBEKOVA SHAROFAT DO'STNAZAR QIZI

Sug'oriladigan yerlarning sho'rlanish dinamikasi va meliorativ holatini baholash.....576

MUNIRA SHAVKATOVNA XUDAYQULOVA

Sabzavot loviyasi (*Phaseolus Vulgaris* L.)ning navlari o'sishi, dukkak shakllanishi va hosildorligiga ta'siri.....582

ESHONQULOV JAMOLIDDIN SAPORBOY O'G'LI, XUDAYBERGENOV

NE'MATULLA MATKARIMOVICH, TO'XTAYEVA GULSHAN PO'LOTOVNA

Buxoro-10 (Sardor-1) va Porloq-1 g'o'za navlari ekilgan tajriba dalasi tuprog'ining suv o'tkazuvchanligi.....587

SAYFIDINOV XAYITMUROD ZIYEDULLAYEVICH

Ekish chuqurligi va minutuganak vaznining kartoshka Sante navi Palak hamda ildiz massasiga ta'siri.....591





CHORVACHILIK MAHSULOTLARI XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA GO'SHT VA GO'SHT MAHSULOTLARINI VETERINARIYA-SANITARIYA JIHATIDAN BAHOLASH USULLARI VA ILMIY-AMALIY AHAMIYATI

YULDASHOV NURBEK ERGASHOVICH

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali v.f.d., professor (DSc), ilmiy rahbar

E-mail: nurbekyuldashov@gmail.com

ORCID: 0009-0004-5794-4501

ZAHRIDDINOVA GAVHAR HASAN QIZI

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali talabasi

E-mail: gavharzahriddinova@gmail.com

ORCID: 0009-0001-3659-9262

Annotatsiya. Mazkur maqolada go'sht va go'sht mahsulotlarini veterinariya-sanitariya jihatidan baholashda qo'llaniladigan asosiy laboratoriya usullari hamda ularning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdagi ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot jarayonida go'sht namunalari organoleptik baholash, pH ko'rsatkichini aniqlash, mis sulfati reaksiyasi va mikroskopik tekshirish usullari yordamida baholandi. Har bir usulning go'sht sifati va yangiligini aniqlashdagi ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Shuningdek, veterinariya-sanitariya ekspertizasining iste'molchilar salomatligini muhofaza qilish, sifatsiz mahsulotlarning muomalaga chiqishini oldini olish hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdagi o'rni yoritildi. Olingan ma'lumotlar ushbu usullar veterinariya amaliyotida muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: go'sht, veterinariya-sanitariya ekspertizasi, oziq-ovqat xavfsizligi, pH, mis sulfati reaksiyasi, mikroskopiya.

Аннотация. В статье рассмотрены основные методы ветеринарно-санитарной оценки мяса и мясных продуктов, а также их значение в обеспечении безопасности пищевой продукции. В ходе исследования образцы мяса были исследованы органолептическими методами, определением показателя pH, реакцией с сульфатом меди и микроскопическим исследованием. Проанализирована роль каждого метода при определении свежести и качества мяса. Особое внимание уделено значению ветеринарно-санитарной экспертизы в предупреждении реализации недоброкачественной продукции, защите здоровья населения и обеспечении безопасности пищевых продуктов. Полученные результаты подтверждают, что применение комплекса лабораторных методов позволяет объективно оценить качество мяса и принять правильное экспертное заключение.

Ключевые слова: мясо, ветеринарно-санитарная экспертиза, безопасность пищевых продуктов, pH, реакция с сульфатом меди, микроскопия.

Abstract. This article discusses the main veterinary-sanitary methods used to assess meat and meat products and their importance in ensuring food safety. Meat samples were examined using organoleptic evaluation, pH determination, copper sulfate reaction, and microscopic examination. The significance of each method in determining meat freshness and quality was scientifically analyzed. Particular attention was paid to the role of veterinary-sanitary expertise in protecting public health, preventing the marketing of unsafe meat products, and ensuring food safety. The obtained results indicate that the combined use of these laboratory methods provides reliable information about meat quality and suitability for human consumption.

keywords: meat, veterinary-sanitary expertise, food safety, pH, copper sulfate reaction, microscopy.





KIRISH

Bugungi kunda aholini sifatli va xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash dunyo miqyosidagi eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, go'sht va go'sht mahsulotlari inson organizmi uchun yuqori biologik qiymatga ega bo'lgan oqsillar, yog'lar, vitaminlar va mineral moddalarning asosiy manbai sifatida aholi ovqatlanishida muhim o'rin tutadi. Biroq ushbu mahsulotlarni ishlab chiqarish, saqlash va sotish jarayonida veterinariya-sanitariya talablariga rioya etilmasligi mahsulot sifati pasayishiga hamda insonlar orasida oziq-ovqat orqali yuqadigan kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu munosabat bilan go'sht va go'sht mahsulotlarini veterinariya-sanitariya ekspertizasidan o'tkazish, ularning organoleptik, fizik-kimyoviy va mikroskopik ko'rsatkichlarini baholash oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Veterinariya-sanitariya ekspertizasi orqali mahsulotning yangiligi, sifati va iste'molga yaroqliligi aniqlanadi hamda aholi salomatligini muhofaza qilishga xizmat qiladi. Maqolaning maqsadi – go'sht va go'sht mahsulotlarini veterinariya-sanitariya jihatidan baholashda qo'llaniladigan asosiy laboratoriya usullarining ilmiy-amaliy ahamiyatini tahlil qilish hamda ularning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdagi o'rnini yoritish.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlash davlat siyosatida ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda mazkur sohadagi munosabatlar bir qator qonunlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda davlat standartlari bilan tartibga solinadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining «Veterinariya to'g'risida»gi Qonunida hayvonlardan olinadigan mahsulotlarni veterinariya-sanitariya ekspertizasidan o'tkazish hamda ularning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha asosiy talablar belgilangan [1]. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-iyuldagi 409-son qarori bilan tasdiqlangan «Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi to'g'risidagi umumiy texnik reglament»da oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, saqlash, tashish va realizatsiya qilishda sanitariya-gigiena talablariga qat'iy rioya etish belgilangan. Ushbu hujjatda mahsulotlarning inson salomatligi uchun xavfsiz bo'lishi laboratoriya tekshiruvlari orqali tasdiqlanishi qayd etilgan [2]. Go'sht va go'sht mahsulotlarining sifati hamda xavfsizligini baholashda organoleptik tekshirish birinchi bosqich hisoblanadi. Bu usul orqali mahsulotning tashqi ko'rinishi, rangi, hidi, konsistensiyasi va kesilgan yuzasi baholanadi. Biroq organoleptik ko'rsatkichlar har doim ham mahsulotning haqiqiy sanitariya holatini to'liq aks ettirmaydi. Shuning uchun ular laboratoriya tahlillari bilan to'ldiriladi [3]. Fizik-kimyoviy tekshirish usullaridan biri bo'lgan pH ko'rsatkichini aniqlash go'shtning yangiligi va biokimyoviy holatini baholashda muhim ahamiyatga ega. pH qiymatining me'yordan oshishi yoki pasayishi mahsulotda kechayotgan avtolitik va mikrobiologik jarayonlarning jadallashganligini ko'rsatishi mumkin [4]. Go'sht sifatiga baho berishda mis sulfati reaksiyasi ham keng qo'llaniladi. Ushbu reaksiya oqsillarning parchalanish darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Reaksiya natijalari





mahsulotning yangi yoki buzilganligini baholash imkonini beradi va veterinariya-sanitariya ekspertizasida muhim ahamiyat kasb etadi [5]. Mikroskopik tekshirish usuli esa go'sht to'qimalarining morfologik holatini, mikroorganizmlar mavjudligini hamda buzilish jarayonlarini aniqlash imkonini beradi. Ushbu usul boshqa laboratoriya tahlillari bilan birgalikda mahsulot sifatiga ob'ektiv baho berishda muhim hisoblanadi [6].

Xalqaro amaliyotda ham go'sht mahsulotlarining xavfsizligini ta'minlash maqsadida Codex Alimentarius hamda ISO standartlarida mahsulotlarni laboratoriya tekshiruvidan o'tkazish bo'yicha talablar belgilangan. Ularda go'sht sifatiga kompleks yondashuv, ya'ni organoleptik, fizik-kimyoviy va mikrobiologik baholash usullarini birgalikda qo'llash tavsiya etiladi [7]. Shunday qilib, mahalliy va xorijiy olimlarning tadqiqotlari hamda amaldagi normativ hujjatlar go'sht va go'sht mahsulotlarini veterinariya-sanitariya ekspertizasidan kompleks laboratoriya usullari asosida baholash oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning eng samarali yo'llaridan biri ekanligini tasdiqlaydi [8].

METODOLOGIYA

Tadqiqot ishlari Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filiali Veterinariya-sanitariya yekspertizasi kafedrasining maxsus laboratoriyasida amalga oshirildi. Tadqiqot ob'ekti sifatida iste'mol uchun mo'ljallangan go'sht namunalari tanlab olindi. Namunalar veterinariya-sanitariya ekspertizasida qo'llaniladigan an'anaviy laboratoriya usullari yordamida baholandi.

Tadqiqotlar quyidagi ketma-ketlikda o'tkazildi:

Organoleptik baholash. Go'sht namunalarining tashqi ko'rinishi, rangi, hidi, konsistensiyasi, kesilgan yuzasining namligi hamda mushak to'qimasining holati baholandi. Organoleptik ko'rsatkichlar amaldagi veterinariya-sanitariya qoidalari asosida aniqlandi [3].

pH ko'rsatkichini aniqlash. Go'sht namunalarining faol kislotaliligi (pH) pH-metr yordamida aniqlandi. Bu ko'rsatkich go'shtda kechayotgan biokimyoviy jarayonlarni baholash hamda mahsulotning yangiligini aniqlash uchun muhim mezon hisoblanadi. pH qiymatlari amaldagi me'yoriy hujjatlar bilan taqqoslandi [4].

Mis sulfati reaksiyasi. Go'sht namunalarida oqsillarning parchalanish mahsulotlarini aniqlash maqsadida mis sulfati reaksiyasi o'tkazildi. Reaksiya natijalari eritmaning tiniqligi yoki loyqalanishiga qarab baholandi. Tiniq eritma mahsulotning yangi ekanligini, loyqalanish esa oqsil parchalanishi kuchayganligini ko'rsatadi [5].

Mikroskopik tekshirish. Go'shtdan surtma preparatlar tayyorlanib, mikroskop ostida tekshirildi. Tekshirish jarayonida mushak tolalarining holati, mikroorganizmlar mavjudligi hamda to'qimalardagi morfologik o'zgarishlar baholandi [6].

Barcha tadqiqot natijalari taqqoslash va tahlil qilish usullari orqali baholandi.





1-jadval

Go'sht namunasining laboratoriya tekshiruvlari natijalari

Namuna	Organoleptik	pH (me'yori 5,8–6,2)	Mis sulfati	Mikroskopiya	Baholash
1	Qoniqarli	6,8	Tiniq	Ayrim mikroorganizmlar kuzatildi	Iste'molga yaroqsiz
2	Shubhali	7,0	Xira cho'kma	Mikroorganizmlar soni ko'proq	Iste'molga yaroqsiz
3	Qoniqarli	5,8	Tiniq	Me'yorga mos	Iste'molga yaroqli
4	Qoniqarli	5,9	Tiniq	Me'yorga mos	Iste'molga yaroqli
5	Qoniqarli	5,8	Tiniq	Me'yorga mos	Iste'molga yaroqli

NATIJALAR VA TAHLILLAR

Tadqiqot davomida 5 ta go'sht namunasi organoleptik baholash, pH ko'rsatkichini aniqlash, mis sulfati reaksiyasi va mikroskopik tekshirish usullari yordamida baholandi.

1-namunada organoleptik ko'rsatkichlar me'yorga mos bo'lganiga qaramay, pH ko'rsatkichining 6,8 gacha oshganligi kuzatildi. Bu esa faqat tashqi belgilariga asoslanib xulosa chiqarish har doim ham yetarli emasligini ko'rsatadi va mahsulotni fizik-kimyoviy usullar bilan qo'shimcha baholash zarurligini tasdiqlaydi.

2-namunada esa organoleptik baholashda shubhali belgilar kuzatildi. pH ko'rsatkichi 7,0 ni tashkil qildi va mis sulfati reaksiyasida eritmaning xira cho'kma hosil qilishi qayd etildi. Bu natijalar mahsulotda muayyan biokimyoviy o'zgarishlar kechayotganligini ko'rsatib, kompleks laboratoriya tekshiruvlarining ahamiyatini yanada oshiradi.

Tekshiruv natijalariga ko'ra, 3-, 4- va 5-namunalar barcha ko'rsatkichlar bo'yicha amaldagi me'yoriy talablarga mos ekanligi aniqlandi. Ushbu namunalarda organoleptik xususiyatlar yaxshi saqlangan, pH ko'rsatkichi fiziologik me'yor doirasida bo'lib, mis sulfati reaksiyasida eritma tiniq holatda qoldi. Mikroskopik tekshiruv ham ularning sanitariya holati qoniqarli ekanligini ko'rsatdi.

XULOSA

O'tkazilgan tadqiqotlar go'sht namunalarini baholashda turli laboratoriya usullarini birgalikda qo'llash yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi. Tahlillar natijasida ayrim namunalarda tashqi ko'rinish me'yoriy bo'lgan holda fizik-kimyoviy ko'rsatkichlarda o'zgarishlar mavjudligi aniqlandi. Bu esa mahsulot sifatiga baho berishda faqat organoleptik ko'rik bilan cheklanish yetarli emasligini tasdiqlaydi.





Shu bilan birga, pH ko'rsatkichi, mis sulfati reaksiyasi va mikroskopik tekshiruv natijalari mahsulot holatini yanada aniq baholash hamda unda kechayotgan o'zgarishlarni o'z vaqtida aniqlash imkonini berdi. Kompleks laboratoriya tekshiruvlarini amaliyotga keng joriy etish veterinariya-sanitariya ekspertizasining ishonchliligini oshirish, aholiga sifatli va xavfsiz chorvachilik mahsulotlarini yetkazib berish hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 2015 yil 29 dekabrda «Veterinariya to'g'risida»gi Qonuni (yangi tahrirdagi o'zgartish va qo'shimchalar bilan).
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 20 iyuldagi 409-son qarori. «Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi to'g'risidagi umumiy texnik reglamentni tasdiqlash haqida». – Toshkent, 2020.
3. GOST 7269–2015. Go'sht. Sifatini aniqlashning organoleptik usullari. – Moskva: Standartinform, 2016.
4. GOST 23392–2016. Go'sht va go'sht mahsulotlari. pH ko'rsatkichini aniqlash usullari. – Moskva: Standartinform, 2017.
5. Смирнов А.М. Ветеринарно-санитарная экспертиза мяса и мясных продуктов. – Москва: КолосС, 2019. – 368 б.
6. Макаров В.А., Фролов В.П. Ветеринарно-санитарная экспертиза с основами технологии переработки продуктов животноводства. – Санкт-Петербург: Лань, 2021. – 448 б.
7. Codex Alimentarius Commission. General Principles of Food Hygiene (CXC 1-1969, Revised). FAO/WHO, Rome, 2022.
8. ISO 17604:2015. Microbiology of the Food Chain — Carcass Sampling for Microbiological Analysis. International Organization for Standardization, Geneva, 2015



2026-yil, iyul. №7-son.

Mas'ul muharrir: Beglayev Uchqun

Musahhih: Boltayev Nurali

Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru

Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal

Telefon raqami: +998939018320, +998934393000

Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.



"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko'chasi, 2-uy**